Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil
25-maydagi 287a-son buyrug‘iga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan**
**YO‘L XARITASI**

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| **I. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi** | | | |
| 1. | Test sinovlarining o‘tkazilishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida ularni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish, normativ-huquqiy hujjatlarga test sinovida qoida buzarlarga nisbatan qo‘llanadigan jazo choralarini kuchaytirish bo‘yicha normalarni kiritish.<br>ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, tashkilotda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi tavsiyaviy hujjatlar to‘plamini ishlab chiqish va tasdiqlash. | Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, Bosh yuriskonsult<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Belgilangan muddatlarda<br><br>01.06.2023 |
| 2. | Test sinovlari shaffofligini kuchaytirish bo‘yicha tashkiliy jarayonlar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash:<br>- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida yil davomida test sinovlarini ochiq va shaffof o‘tkazishga mo‘ljallangan katta hajmli binolarni barpo etish va jihozlash;<br>- respublikaning olis hududlarida tashkil etiladigan test sinovlari uchun statsionar videofiksatsiya vositalari va videokuzatuv kameralarini xarid qilish. | Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i,<br>Ishlar boshqaruvchisi<br>Xarid komissiyasi | Jadval asosida |
| 3. | Korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida zarur ma’lumotlar bazasini shakllantirish:<br>- 2023/2024-o‘quv yili uchun oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga o‘qishga kirishda imtiyozga ega abituriyentlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish va imtiyoz beruvchi sertifikatlar haqqoniyligini tekshirish; | Test sinovlarining dasturiy-texnik ta‘minoti bo‘limi boshlig‘i | 20.06-20.07.2023 |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| | - umumta‘lim maktablari, akademik litsey va professional ta‘lim muassasalarining joriy yilgi bitiruvchilari ma‘lumotlar bazasini shakllantirish. | | 01.07.2023 |
| 4. | Fuqarolarning turli firibgarlik holatlariga aralashib qolishining oldini olish maqsadida:<br>- abituriyent(talabgor)lar, shuningdek, nogironlar uchun surdotarjima usulida “Abituriyent sifatida ro‘yxatdan o‘tish”, “Test sinovlarini o‘tkazilish tartibi”, “Javoblar varaqasini to‘ldirish tartibi”, “O‘qishni ko‘chirish bo‘yicha test sinovlari” mavzularida videoroliklar ishlab chiqish, rasmiy veb-saytga joylashtirish, ommaviy-axborot vositalarida namoyish etish.<br>- mahalla va ta‘lim muassasalarida test sinovlarida haqqoniylik va shaffoflik prinsiplarini ta‘milash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xususida targ‘ibot tadbirlarini uyushtirish. | Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | 01.08.2023<br><br>Jadval asosida |
| 5. | Test sinovlari nazoratchilarini ro‘yxatga olishda inson omilini qisqartirish, bino rahbarlari va guruh nazoratchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish tadbirlarini amalga oshirish:<br>- test sinovlarida nazoratchi sifatida faoliyat yuritish istagini bildirgan shaxslarni onlayn ro‘yxatdan o‘tishi uchun maxsus elektron platforma yaratish, ularni ro‘yxatga olish ishlarini tashkil etish;<br>- bino rahbarlari va guruh nazoratchilarini tayyorlash uchun o‘quv dasturi, qo‘llanmalarni tayyorlash, ularga korrupsiyaga qarshi bandlarni kiritish;<br>- guruh nazoratchiligiga nomzodlar uchun seminar-treninglar tashkil etish va ularni saralash mexanizmlarini tartibga solish. Seminar-trening ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malakalarini test sinovlari, amaliy imtihon va suhbat asosida tekshirib, shartnomalar tuzish. Shartnomalarga korrupsiyaga qarshi bandlarni kiritish. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i<br><br>Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, “Ilmiy-o‘quv amaliy markazi” davlat muassasasi rahbari<br><br>Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i | 2023-yil 2-chorak |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| 6. | Test sinovlari jarayoni dasturiy ta’minotini takomillashtirish, axborot xavfsizligini kuchaytirish:<br>- tashkiliy tuzilmalarda axborot xavfsizligi siyosati talablari asosida chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, bunda test sinovlari natijalarining statistik tahlillari asosida korrupsiya holatlari ehtimolini aniqlashga alohida e’tibor qaratish;<br>- test sinovlari javoblar varaqalariga optik skanerlar yordamida ishlov berish va natijalarni hisoblash dasturini ekspertizadan o‘tkazish. Test sinovi natijalarini hisoblash va tahlil bo‘limida xavfsizlik choralarini kuchaytirish;<br>- test sinovi ishtirokchilarini guruhlarga taqsimlash ishlarida inson omilini qisqartirish va shaffofligini ta‘minlash, bunda jarayonni maxsus komissiya tomonidan maxsus kompyuter dasturi yordamida amalga oshirilishiga alohida e‘tibor qaratish.<br>- abituriyent(talabgor)lar shaxsni identifikatsiyadan o‘tkazish dasturiy ta‘minotiga o‘zgartirishlar kiritish, identifikatsiyadan o‘tmagan abituriyent(talabgor)larning ro‘yxatini shakllantirish va test sinovlariga o‘ringa-o‘rin kirish holatlarini tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | 2023-yil 2-chorak<br><br>Belgilangan muddatlarda<br><br>01.07.2023 |
| 7. | Test sinovlari shaffofligini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish:<br>- tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda test sinovlarida jamoatchilik nazoratini joriy etish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish. Jamoatchilik nazorati vakillariga maxsus ruxsatnomalarni shakllantirish va ularning jarayondagi bevosita ishtirokini ta’minlash;<br>- abituriyent (talabgor)larning ota-onalari va jamoatchilik uchun test sinovlarini onlayn rejimda kuzatilishini ta‘minlash;<br>- test sinovlari fanlar majmuasi va natijalarni baholash mezonlarini kollegial tartibda belgilash va rasmiy veb-saytga joylashtirib borish; | Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Test sinovlarini dasturiy-texnik ta‘minoti bo‘limi boshlig‘i | 01.08.2023<br><br>Test sinovlari davomida |

| T/r | Tadbir nomi | Mas'ul | Bajarish muddati |
| --- | --- | --- | --- |
| | - oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlari bilan bog'liq (ishtirokchilar, chetlashtirilganlar va boshq.) statistik ma'lumotlarni rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilik uchun e'lon qilib borilishini ta'minlash. Rasmiy veb-saytda test sinovlarini tashkil etilishini baholash maqsadida so'rovnoma ruknini tashkil etish va natijalarini tahlil etib borish. | | |
| 8. | Test topshiriqlari xavfsizligini ta'minlash choralarini belgilash va amalga oshirish:<br>- test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi va bosmaxonada xavfsizlik tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish;<br>- test topshiriqlarini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ommaviy-axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikni tanishtirib borish;<br>- yuqori malakali mutaxassislardan iborat umumta'lim va maxsus fanlar ekspertlarini jalb etishda ularning muqaddam korrupsion jinoyatlarga aloqador emasligini tekshirish;<br>- testologiya sohasidagi metodik ko'rsatmalarni, seminar materiallarining "Ilmiy-o'quv amaliy markazi" davlat muassasasi tomonidan yagona ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqilishini ta'minlash. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i<br>Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas'ul, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis<br>"Ilmiy-o'quv amaliy markazi" davlat muassasasi rahbari, | 2023-yil<br>2-chorak<br>Belgilangan muddatlarda |
| 9. | Milliy sertifikat va CEFR imtihonlarida korrupsion omillarning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish:<br>- Milliy sertifikat imtihonlari fan ekspertlari va test topshiriqlarini chop etish bo'limi ishini yopiq ish rejimida tashkil etish;<br>- CEFR imtihonlarida inson omilini qisqartirish, talabgorlarning gapirish ko'nikmasini baholash jarayonlarini maxsus elektron platforma orqali tashkil etish;<br>- talabgorlarning guruh bo'yicha ro'yxatlarida ularning fotosuratlarini joylashtirish, sertifikat darajalarini ko'rsatish amaliyotini joriy etish, sertifikatga ega talabgorlarni alohida | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i, Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas'ul<br>Chet tilini bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi boshlig'i | 2023-yil<br>2-, 4-choraklarda<br><br>Belgilangan |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| | guruhlarga joylashtirish, mazkur guruhlarda nazoratni kuchaytirish;<br>- test topshiriqlari bazasini boyitish, test variantlarini ko‘paytirish;<br>- talabgorlarni binoga videofiksatsiya tizimlari orqali tekshirib kiritish, test sinovlarini videokuzatuv ostida o‘tkazish;<br>- test sinovlarida nazoratchilar mas’uliyatini oshirish, ularni korrupsiyaga qarshi maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish, jarayonning shaffof va adolatli o‘tishini ta’minlash. | Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, Chet tilini bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi boshlig‘i<br>Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | muddatlarda<br>Belgilangan muddatlarda<br>2023-yil 2-chorak |
| 10. | Davlat tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo‘yicha test sinovlarini tashkil etishda shaffoflik va haqqoniylikni ta’minlash:<br>- test topshiriqlarini sifatli shakllantirish, ularning bazasini boyitish, xavfsiz saqlanishini ta’minlash;<br>- test sinovlarini katta sig‘imli binolarda videokuzatuv ostida o‘tkazish, talabgorlarni binoga videofiksatsiya tizimlari orqali tekshirib kiritish, jarayonning ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn translatsiyasini amalga oshirish. | Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i<br>Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi | 2023-yil jadval asosida<br>Har chorakda |
| 11. | Xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish, nostrifikatsiya jarayonlarida byurokratiyani bartaraf etish, jarayonning shaffofligi va haqqoniyligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish:<br>- xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun ariza topshirish, hujjatlarni ko‘rib chiqish, ularning ekspertizasi bilan bog‘liq jarayonlarni to‘liq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirish;<br>- inson omilini qisqartirish maqsadida test sinovlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;<br>- xorijiy davlatda ta’lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olishda belgilangan talablarni soddalashtirish yuzasidan takliflarni ishlab | Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Oliy ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatlarni nostrifikatsiyalash va apostil qo‘yish bo‘limi boshlig‘i, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | 2023-yil 1-avgust<br>2023-yil 1-oktabr<br>2023-yil |

| T/r | Tadbir nomi | Mas'ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| | chiqish;<br>- ta'lim sohasiga oid hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha E-APP dasturiga vakolatli tashkilotlarning muhr hamda vakolatli shaxslarning imzo namunalarini kiritib borish;<br>- haqqoniyligi tasdiqlanmagan apostil qo'yish uchun taqdim etilgan hujjatlarni taqdim etgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etib borish. | | 1-oktabr<br><br>Muntazam<br><br><br><br>Muntazam |
| **II. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish** | | | |
| **2.1. Agentlik tizimida vakant bo'lgan bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish** | | | |
| 12. | Ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rotatsiya qilish jarayonida nomzodlardan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risida belgilangan shakldagi arizalarni qabul qilish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis | Belgilangan muddatlarda |
| 13. | Xodimlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha tekshirish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis | Belgilangan muddatlarda |
| 14. | Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganida tashkilot rahbarini xabardor qilish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas'ul | Belgilangan muddatlarda |
| **2.2. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili oshkor qilish (yillik deklaratsiya)** | | | |
| 15. | Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi xodimlar arizalarining to'liq va to'g'ri to'ldirilishini ta'minlash va to'ldirilgan arizani Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassisga taqdim qilish. | Boshqarma va bo'lim boshliqlari | 2023-yil<br>25-mayga qadar |
| 16. | Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqlash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqida olingan arizalarni tahlil qilish, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan xodimlar haqidagi ma'lumotni Odob-axloq komissiyasiga taqdim qilish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas'ul | 2023-yil<br>30-mayga qadar |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| 17. | Xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo‘lganda) xodim ishtirokida manfaatlar to‘qnashuvi holatini ko‘rib chiqish va tegishli qarorni qabul qilish, chora-tadbirlarni belgilash. | Odob-axloq komissiyasi<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Belgilangan muddatlarda |
| 18. | Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reyestriga kiritiladigan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqidagi elektron ma‘lumotlarni jamlash va saqlash. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | 30-mayga qadar |
| 19. | Manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, aniqlash va hal qilish bo‘yicha statistika tahlilini tashkilot rahbariga kiritish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | 2023-yil<br>10-iyun |
| **2.3. Real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelish fakti bo‘yicha ma‘lumotlarni oshkor qilish** | | | |
| 20. | Real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelish fakti bo‘yicha ma‘lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha xodimlarga tushuntirish berish. | Boshqarma va bo‘lim boshliqlari<br>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis | 2023-yil<br>may |
| 21. | Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma‘lumotni ko‘rib chiqish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish bo‘yicha taklif bilan xabarnomani Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazish hamda tegishli choralarni ko‘rish uchun taqdim etish. | Boshqarma va bo‘lim boshliqlari<br>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis | Xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida |
| 22. | Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi haqida xulosa qilinib, tashkilot rahbariga yozma shaklda tegishli ma‘lumot kiritish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Xabarnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab bir hafta muddatda |
| **2.4. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish** | | | |
| 23. | Nomzodlarni tekshirish uchun zarur ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis | Ariza qabul qilingandan boshlab bir hafta muddatda |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| 24. | Nomzod tekshiruvini o‘tkazish natijalari bo‘yicha hisobotni tayyorlash va saqlanishini ta‘minlash, o‘tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma‘lumotlarni ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestriga kiritish. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Ariza qabul qilingandan boshlab bir hafta muddatda |
| **III. Xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish** | | | |
| 25 | O‘qitish uchun o‘quv dasturlarini, o‘quv materiallarini va jadvalini ishlab chiqish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Odob-axloq komissiyasi | 2023- yil may |
| 26. | Xodimlarni korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish ishlarini tashkil etish. Xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi so‘rovnomalar o‘tkazish va tahlil qilish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Odob-axloq komissiyasi | Jadval asosida |
| 27. | Xodimlarning etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish ishlarini tashkil etish. | Odob-axloq komissiyasi | Jadval asosida |
| 28. | Xodimlarning etik xulq-atvori qoidalari, korrupsiyaga qarshi o‘quv materiallarini o‘zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlarini o‘tkazish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Odob-axloq komissiyasi | Jadval asosida |
| **IV. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish** | | | |
| 29. | Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun tashkilot aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallarga joylashtirish, shuningdek, o‘quv materiallariga kiritish, tashkilot binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettirish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | 2023-yil may |
| 30. | Bilim va malakalarni baholash agentligi rasmiy veb-sayti Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limini yangilangan formatda ishga tushirish va zarur ma‘lumotlar bilan boyitish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | 2023-yil may |
| 31. | Korrupsiyaga oid xabarlarni qabul qilishga mo‘ljallangan aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlarni belgilangan tartibda | Murojaatlar bo‘limi, Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Belgilangan muddatlarda |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| | ro‘yxatga olish va rahbar rezolyutsiyasi orqali belgilangan tartibda ijroga yo‘naltirish. | | |
| 32. | Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi murojaatlarni, alohida reyestrda hisobga olish, belgilangan tartibda ko‘rib chiqish, zarur hollarda xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish va javob yuborish. | Murojaatlar bo‘limi, Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Bosh yuriskonsult | Belgilangan muddatlarda |
| 33. | Reyestr ma‘lumotlari asosida tashkilot rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarga taalluqli bo‘lgan belgilangan shakldagi hisobotni taqdim etish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | har chorak yakunida, keyingi oyning 5-sanasiga |
| **V. Davlat xaridlarini amalga oshirishda kontragentlarni tekshirish** | | | |
| 34. | Davlat xaridlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) bo‘yicha kontragentlarni tekshiruvchi ishchi guruhni shakllantirish va vazifalarni belgilash. | Xarid komissiyasi<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | 2023-yil may |
| 35. | Davlat xaridlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) doirasida kontragentlar tekshiruvini belgilangan tartibda o‘tkazish.<br>O‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha xulosani shakllantirish va tegishli takliflar bilan Xarid komissiyasiga, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha mas‘ul xodimga taqdim etish. | Xarid komissiyasining ishchi guruhi | G‘olib to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar |
| 36. | O‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha ma‘lumotni Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Tekshiruv xulosasi chiqqanidan boshlab uch ish kunida |
| 37. | Davlat xaridlari va boshqa ochiq ma‘lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | Buxgalteriya hisobi va moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i | Har chorakda |
| **VI. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish** | | | |
| 38. | O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari ijrosi monitoringini olib borish.<br>Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi tizimni takomillashtirish, ichki | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Doimiy ravishda<br>Monitoring |

| T/r | Tadbir nomi | Mas’ul | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| | idoraviy hujjatlarni o‘zgartirish yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritish. | | yakunlari bo‘yicha zarurat tug‘ilganda |
| 39. | Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tashkilot xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringini yuritish va tahlil etib borish.<br>Monitoring natijasida agentlik xodimiga aloqador xabar aniqlanganda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini amalga oshirish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Bosh yuriskonsult, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, Odob-axloq komissiyasi | Doimiy ravishda<br>Belgilangan muddatlarda |
| 40. | Tashkilot xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Yarim yilda bir marta |
| 41. | Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>Nazorat rejasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish va hisobotlarda aks ettirish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari | 2023-yil may<br>Belgilangan muddatlarda |
| 42. | O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborotni jurnalga kiritish. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Belgilangan muddatlarda |
| | **VII. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash** | | |
| 43. | Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi, tashkilotning korrupsiyaga qarshi Dasturi tadbirlarini amalga oshirilishi bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni belgilangan tartibda tayyorlash. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga mas’ul | Har chorakda, har yili hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasi |